



\_\_\_\_\_ *hokimligi*  
*maktabgacha va maktab ta'limi*  
*boshqarmasi*

\_\_\_\_\_ *maktabgacha va*  
*maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi*  
*\_\_\_-umumiy o'rta ta'lim maktabi*  
*biologiya fani o'qituvchisi*

\_\_\_\_\_ *ning*  
*20\_\_-20\_\_-o'quv yilida 8-9-sinflar*  
*uchun odam va uning salomatligi*  
*fanidan "Odam salomatligi va*  
*biologiya" nomli*

**TO'GARAK**  
**HUJJATLARI**

## To'g'arak a'zolari haqida ma'lumot

<i>No</i>	<b>Familiya ismi va sharifi</b>	<b>Tug'ilgan sanasi</b>	<b>Sinfi</b>	<b>Manzili</b> (to'liq)	<b>Ota-onasi</b> (Ismi sharifi)	<b>Telefon</b> (uy yoki mobil)	<b>Izoh</b>
<i>1.</i>							
<i>2.</i>							
<i>3.</i>							
<i>4.</i>							
<i>5.</i>							
<i>6.</i>							
<i>7.</i>							
<i>8.</i>							
<i>9.</i>							
<i>10.</i>							
<i>11.</i>							
<i>12.</i>							
<i>13.</i>							
<i>14.</i>							

15.							
16.							
17.							
18.							
19.							
20.							
21.							
22.							
23.							
24.							
25.							
26.							
27.							
28.							
29.							
30.							

*O'tkazilgan xona* \_\_\_\_\_





20\_\_-20\_\_-o‘quv yili uchun tuzilgan “Odam salomatligi” to‘garagining  
ISH REJASI

№	Yillik ish reja mavzulari	Soat	Sana	Izoh
1.	Kirish. Odam va uning salomatligi odam anatomiyasi, fiziologiyasi va gigienasi haqidagi fan ekanligi			
2.	To‘qimalar. Organ va organlar sistemasi			
3.	Epitelial (qoplovchi), biriktiruvchi, muskul va nerv to‘qimalar tuzilishi bilan tanishish			
4.	Suyaklarning tuzilishi va tarkibi			
5.	Odam tanasi muskullarining asosiy guruhlari			
6.	Qad-qomatning shakllanishi. Umurtqa pog‘onasining roli, tananing ressoni			
7.	Qonning tarkibi va shaklli elementlari			
8.	Immunitet. Qonning shaklli elementlarini o‘rganish			
9.	Katta va kichik qon aylanish doirasi			
10.	Qonning tomirlar bo‘ylab harakatlanishi			
11.	Jismoniy mashqlarning yurak-qon tomir tizimiga ta’sirini aniqlash.			
12.	Ovoz apparati			
13.	Sun’iy nafas oldirish			
14.	Ovqat hazm qilishning ahamiyati			
15.	Me’da va ichaklarning tuzilishi va vazifasi			
16.	Ovqat hazm qilish a’zolari gigiyenasi. Me’da ichak kasalliklari va ularning oldini olish			
17.	Moddalar va energiya almashinuvi haqida umumiy tushuncha.			
18.	Energiya almashinuvi			
19.	Ayirishning ahamiyati			
20.	Terining tuzilishi va funksiyasi			
21.	Ichki sekretiya bezlari haqida umumiy tushuncha			
22.	Buyrak usti, me’da osti va jinsiy bezlar			
23.	Bosh miya			
24.	Vegetativ nerv tizimi			
25.	Tizza refleksi hosil bo‘lishini o‘rganish			
26.	Markaziy nerv tizimida tormozlanishi			
27.	Nutq va fikrlash			
28.	Nerv tizimi gigiyenasi			
29.	Ko‘zning tuzilishi va ahamiyati			
30.	Eshitish a’zosi (eshitish analizatori).			
31.	Muskul, pay va bo‘g‘imlar orqali sezish (Harakat analizatori).			
32.	Ko‘payishning ahamiyati. Ko‘payish a’zolarining tuzilishi.			

33.	Bolaning o‘sishi va rivojlanishi			
34.	Tirik organizmlarning o‘ziga xos xususiyatlari.			
35.	Tirikning tuzilish darajalari			
36.	Hayotning hujayrasiz shakllari			
37.	Eukariotlar-o‘simliklarning xilma-xilligi			
38.	Hayvonlar dunyosi			
39.	Hujayrani o‘rganish tarixi va hujayra nazariyasi			
40.	Eukariot hujayralar			
41.	Mitoxondriya, plastid, lizosoma va sitoplazmaning boshqa organoidlari.			
42.	Prokariot va eukariot hujayralar			
43.	O‘simlik va hayvon hujayralarini o‘rganish			
44.	Hujayra tarkibiga kiruvchi suv va anorganik moddalar			
45.	Lipidlar.			
46.	Oqsillarning tarkibi. Oqsillarning tuzilishi			
47.	Nuklein kislotalar			
48.	Moddalar almashinuvi			
49.	Energiya almashinuvi bosqichlari			
50.	Xemosintez. Hujayradagi plastik almashinuv			
51.	O‘simlik bargida organik moddalarning hosil bo‘lishi			
52.	Meyoz			
53.	Jinsiy ko‘payish. Reproduktiv huquq to‘g‘risidagi tushuncha			
54.	Embrional rivojlanish davri. Erta homiladorlikning reproduktiv salomatlikka ta‘siri			
55.	Emrion rivojlanishiga tashqi muhitning ta‘siri			
56.	Genetikaning rivojlanish tarixi			
57.	Monoduragay, diduragay va genlarning o‘zaro ta‘sirga oid masalalar yechish.			
58.	Diduragay chatishtirishga oid masalalar yechish.			
59.	Noallel genlarning o‘zaro ta‘siri.			
60.	Jins genetikasi			
61.	Birikkan holda irsiylanish va jins genetikasiga oid masalalar yechish.			
62.	Modifikatsion o‘zgaruvchanlikning statistik qonuniyatlarini o‘rganish			
63.	Odam genetikasini o‘rganish usullari. Ekologik tanglikning oldini olish. Kontrstsepsiyalar haqida tushunchalar			
64.	Odamlardagi irsiy kasalliklar			
65.	Madaniy o‘simliklarning kelib chiqishi va xilma-xillik markazlari			
66.	O‘simliklar va hayvonlar seleksiyasi			
67.	Seleksiya va biotexnologiya			
68.	O‘zbekiston olimlarining biologiya va seleksiya sohasidagi yutuqlari			

Sana: “\_\_\_” \_\_\_\_\_ 20\_\_ -yil. Sinflar: \_\_\_ To‘garak rahbari: \_\_\_\_\_

**Mashg‘ulotning mavzusi: Kirish. Odam va uning salomatligi odam anatomiyasi, fiziologiyasi va gigienasi haqidagi fan ekanligi.**

**Mashg‘ulotning ta‘limiy maqsadi:** O‘quvchilarga “Odam va uni salomatligi fanidan dastlabki tushunchalarni berish, ko‘nikmalarni shakllantirish.

**Mashg‘ulotning tarbiyaviy maqsadi:** Tinchlikni e‘zozlash, shukronalik, keksalarni qadrlash. O‘quvchilarni dunyoqarashlarini kengaytirish, ekologik tarbiya berish. Kasbga yo‘natirish. Tabiatni asrashga o‘rgatish.


**Mashg‘ulotning rivojlantiruvchi maqsadi:** O‘quvchilarning tirik organizmlar, ularda boradigan hayotiy jarayonlar haqidagi bilimlari, mashg‘ulotlik ustida mustaqil ishlash, guruhlarda ishlash, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

**Mashg‘ulotning turi:** Yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi, o‘quvchilar egalagan bilimlarni nazorat qiluvchi mashg‘ulot.

**Mashg‘ulot shakli.** Yangi pedtexnologiyalar asosida (Loyhalash va boshqa metodlar)

**Mashg‘ulotning jihozi:** Mashg‘ulotlik, albom, ko‘rgazmali qurollar, mavzuga oid rangli plakat(rasm)lar, mikropreparatlar, mulyajlar, didaktik materiallar, texnika vositasi.

**I. Tashkiliy qism;** Salomlashish, davomatni aniqlash. Mashg‘ulotni o‘quvchilardan kun, sana, oy, yil fasli, kun yangiliklarini aniqlashdan boshlanadi.



**II. O‘tgan mavzuni mustaxkamlash.** Tejamkorlik. Shukronalik, ekologik madaniyat haqida suxbatlashish.

**III. Yangi mavzu bayoni:** O‘zbekiston Respublikasida sog‘lom, jismonan baquvvat, bilimli, ma‘naviy-axloqiy yetuk, har tomonlama kamol topgan shaxsni shakllantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 40-moddasida „Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega“, 41-moddasida „Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta‘lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir“ deyilgan.

Salomatlikni saqlash va mustahkamlash uchun avvalo odam o‘z tanasining tuzilishi, har qaysi to‘qima va organlarining normal faoliyatini, o‘sish, rivojlanish va ko‘payish qonuniyatlarini bilishi zarur. Shuningdek, barcha tirik mavjudotlar kabi,



odamga ham xos bo'lgan bu biologik xususiyatlarni asrash va tobora takomillashtirish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitni mukammal bilish va yaratish talab etiladi.

Odam organizmining tuzilishini *anatomiya*, lining faoliyatini *fiziologiya*, yashashi, normal o'sishi, rivojlanishi, o'qishi, mehnat qilishi uchun zarur sharoit yaratishni *gigiyena* fanlari asosida o'rganiladi.

Odam organizmining barcha to'qima va organlari bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Shuningdek, organizm tevarak-atrof muhiti bilan ham doimiy aloqadadir. Bu ikkala bog'lanish nerv va endokrin sistemalar orqali boshqariladi.

Sanitariya va gigiyena qoidalariga rioya qilmaslik oqibatida bolalar va o'smirlar organizmida o'sish va rivojlanishning buzilishi, tayanch-harakatlanish, yurak-qon tomir, nafas olish, ovqat hazm qilish organlarining surunkali kasalliklari, ko'rish o'tkirligining pasayib qolishi kabi salbiy holatlar yuzaga kelishi mumkin.

**Vatandoshlarimizning tibbiyot fanining rivojlanishiga qo'shgan hissalar.** Odam va uning salomatligi fanini o'rganar ekanmiz, tibbiyot fani rivojiga ulkan hissa qo'shgan vatandoshlarimizni eslashimiz lozim.

X asrning ikkinchi yarmida Abu Bakr ibn Ahaviy Buxoriyning „Xidoyat" (tibbiyotni o'rganuvchilarga qo'llanma) kitobida odamda uchraydigan ko'pgina kasalliklar va ularni davolashda ishlatiladigan dorilar haqida ma'lumotlar berilgan. O'sha davrlarda Abu Mansur Buxoriyning „Oddiy dorilar haqida katta to'plam", Abu Saxl Masix Jurjoniyning yuz bobli „Al-kimyo" kitobi tibbiyotni o'rganishda mashg'ulotlik sifatida keng qo'llanilgan.

Buyuk olim Abu Rayhon Beruniy ham tibbiyot faniga katta hissa qo'shgan. Uning „Saydana" kitobida o'simlik va hayvonot mahsulotlaridan hamda mineral moddalardan tayyorlanadigan mingdan ortiq dorilar haqida ma'lumot berilgan.

**IV. Yangi mavzuni mustakamlash.** Tezkor savol-javob orqali o'quvchilar bilimi tekshiriladi va mustaxkamlanadi.

**V. O'quvchilarni baholash.** Mashg'ulotda faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantiriladi (baholanadi).

**VI. Uyga vazifa;** mavzuni o'qish, mustaqil test tuzish 10 tadan.

Sana: “ \_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 20\_\_ -yil. Sinflar: \_\_\_ To‘garak rahbari: \_\_\_\_\_

**Mashg‘ulotning mavzusi: To‘qimalar. Organ va organlar sistemasi.**

**Mashg‘ulotning ta’limiy maqsadi:** O‘quvchilarga To‘qimalar. Organ va organlar sistemasi haqida tushunchalarni berish, ko‘nikmalarni shakllantirish.

**Mashg‘ulotning tarbiyaviy maqsadi:** Tinchlikni e‘zozlash, shukronalik, keksalarni qadrlash. O‘quvchilarni dunyoqarashlarini kengaytirish, ekologik tarbiya berish. Kasbga yo‘natirish. Tabiatni asrashga o‘rgatish.

**Mashg‘ulotning rivojlantiruvchi maqsadi:** O‘quvchilarning tirik organizmlar, ularda boradigan hayotiy jarayonlar haqidagi bilimlari, mashg‘ulotlik ustida mustaqil ishlash, guruhlarda ishlash, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

**Mashg‘ulotning turi:** Yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi, o‘quvchilar egalagan bilimlarni nazorat qiluvchi mashg‘ulot.

**Mashg‘ulot shakli.** Yangi pedtexnologiyalar asosida (Loyhalash va boshqa metodlar)

**Mashg‘ulotning jihozi:** Mashg‘ulotlik, albom, ko‘rgazmali qurollar, mavzuga oid rangli plakat(rasm)lar, mikropreparatlar, mulyajlar, didaktik materiallar, texnika vositasi.

**I. Tashkiliy qism;** Salomlashish, davomatni aniqlash. Mashg‘ulotni o‘quvchilardan kun, sana, oy, yil fasli, kun yangiliklarini aniqlashdan boshlanadi.

**II. O‘tgan mavzuni mustaxkamlash.**

1. Hujayra qanday shaklda bo‘ladi?

2. Hujayraning kimyoviy tarkibiga qanday moddalar kiradi?

3. Hujayraning nasi apparati nimalardan iborat va ularning aha- miyati qanday?

4. Hujayra qanday usulda ko‘payadi?

**III. Yangi mavzu bayoni:** Kelib chiqishi, tuzilislii, funksiyasi, hayotiy jarayonlari, bir-biriga o‘xshash bo‘lgan hujayralar to‘plami *to‘qima* deb ataladi. Odam organizmida 4 xil: epiteliy, biriktiruvchii, muskul va nerv to‘qimalari bo‘ladi.

**Epiteliy (qoplovchi) to‘qima.** Bu to‘qima terming ustki yuzasini, ovqat hazm qilish, nafas olish, ayirish organlari va hokazolarning ichki yuzasini qoplab turadi. Buni *ichki organlar pardasi* yoki *shilliq qavati*, deb ham ataladi.

Epiteliy to‘qima joylashishi, bajaradigan vazifasi, tuzilishiga ko‘ra bir necha xil bo‘ladi: shakli yassi (yapaloq), kubsimon, silindrsimon, bir qavatli, ko‘p qavatli va hokazo. Yassi to‘qima teri ustini qoplab turadi, kubsimon to‘qima buyrakda, silindrsimon to‘qima ichakning ichki qavatida, tuksimon to‘qima burun bo‘shlig‘ining ichki yuzasida joylashgan.


**Biriktiruvchi to‘qima.** Biriktiruvchi (qo‘shuvchi) to‘qima tuzilishi va shakliga ko‘ra xilma-xildir, ulaming hujayralari orasida hujayralararo moddalar boladi. Bu to‘qimaga suyaklar, qon, limfa, tog‘ay va paylar kiradi.

**Muskul to‘qimasi.** Muskul to‘qimasi uch xil bo‘ladi: ko‘ndalang-targ‘il, silliq tolali va yurak muskullari. Muskul hujayralarida miofibril tolachalar bo‘lib, ular muskul tolasining qisqarish-yozilish xususiyatini ta‘minlaydi. Ko‘ndalang-targ‘il, ya‘ni skelet muskullari odam tanasining tashqi sohasida joylaslib, suyaklarga birikib turadi. Shuning uchun ular *skelet muskullari* deb ataladi.

**Nerv to‘qimasi.** Nerv to‘qimasi bosh va orqa miyani tashkil etadi. U odam organizmining barcha to‘qima va organlari ishini boshqaradi. Nerv to‘qimasi ikki xil hujayradan: nerv hujayrasi, ya’ni *neyron* va *neyrogliyadan* tashkil topgan.

**Organlar.** Ma’lum funksiyani bajarishga moslashgan turli xil hujayralar va to‘qimalar to‘plami *organni* tashkil qiladi. Har bir organ odam organizmi uchun muhim bo‘lgan aniq bir vazifani bajaradi. Masalan, yurak organizmda qon aylanishini ta’minlaydi.

**Organlar sistemasi.** Bir xil vazifani bajaruvchi bir nechta organlar yig‘indisi *organlar sistemasi* deb ataladi. Masalan, nafas olish organlari sistemasi: burun, halqum, hiqildoq, traxeya, bronxlar hamda o‘ng va chap o‘pkalardan tashkil topgan.



**Organizm.** Yuqorida aytilganlardan ma’lumki, odam organizmi murakkab biologik sistema bo‘lib, u hujayralar, to‘qimalar, organlar va organlar sistemasidan tashkil topgan. Organizm nechog‘liq murakkab tuzilganligiga qaramay, uning barcha to‘qima va organlari bir-biri bilan uzviy bog‘langan holda ishlaydi.

**IV. Yangi mavzuni mustakamlash.** Tezkor savol-javob orqali o‘quvchilar bilimi tekshiriladi va mustaxkamlanadi.

1. **Epiteliy to‘qima odam tanasining qaysi qismlarida joylashgan va qanday shakllarda bo‘ladi?**
2. **Biriktiruvchi va muskul to‘qimaga nimalar kiradi?**
3. **Nerv to‘qimasi qanday hujayralardan tashkil topgan?**

**V. O‘quvchilarni baholash.** Mashg‘ulotda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi (baholanadi).

**VI. Uyga vazifa;** mavzuni o‘qish, mustaqil test tuzish 10 tadan. Rasm chizish.

Sana: “ \_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 20\_\_ -yil. Sinflar: \_\_\_ To‘garak rahbari: \_\_\_\_\_

**Mashg‘ulotning mavzusi:** Epitelial (qoplovchi), biriktiruvchi, muskul va nerv to‘qimalar tuzilishi bilan tanishish

**Mashg‘ulotning ta‘limiy maqsadi:** O‘quvchilarga Epitelial (qoplovchi), biriktiruvchi, muskul va nerv to‘qimalar tuzilishi haqida tushunchalarni berish, ko‘nikmalarni shakllantirish. Mirkoskop bilan mustaqil ishlashni shakllantirish.

**Mashg‘ulotning tarbiyaviy maqsadi:** Tinchlikni e‘zozlash, shukronalik, keksalarni qadrlash. O‘quvchilarni dunyoqarashlarini kengaytirish, ekologik tarbiya berish. Kasbga yo‘natirish. Tabiatni asrashga o‘rgatish.

**Mashg‘ulotning rivojlantiruvchi maqsadi:** O‘quvchilarning tirik organizmlar, ularda boradigan hayotiy jarayonlar haqidagi bilimlari, mashg‘ulotlik ustida mustaqil ishlash, guruhlarda ishlash, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

**Mashg‘ulotning turi:** Yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi, o‘quvchilar egalagan bilimlarni nazorat qiluvchi mashg‘ulot. Laboratoriya, mustaqil ishlash.

**Mashg‘ulot shakli.** Yangi pedtexnologiyalar asosida (Loyhalash va boshqa metodlar)

**Mashg‘ulotning jihozi:** laboratoriya jixozlari. CCD-mikroskop, buyum va qoplagich oynalar, pinset, pipetka, qaychi, preparoval ninalar, baqa, osh tuzining siyoh yoki metil ko‘ki bilan rang berilgan 0,65% li eritmasi hamda epiteliy va biriktiruvchi to‘qimaning tayyorlangan va doimiy mikropreparatlari, shu to‘qimalarga tegishli jadval va rasmlar.

**I. Tashkiliy qism;** Salomlashish, davomatni aniqlash. Mashg‘ulotni o‘quvchilardan kun, sana, oy, yil fasli, kun yangiliklarini aniqlashdan boshlanadi.

**II. O‘tgan mavzuni mustaxkamlash.**

**1. Odam organizmi uchun tashqi muhitning ahamiyati nimadan iborat?**

**2. Tashqi muhit organizmga qanday ta’sir ko‘rsatadi?**

**3. Organizm ichki muhitining doimiyliigi haqida nimalarni bilasiz?**

**4. Odam organizmiga tashqi muhitning zararli ta’siri va uning oqibatlarini haqida nimalarni bilasiz?**

**III. Yangi mavzu bayoni:**

**Epiteliy to‘qimasi bo‘yicha ishni bajarish tartibi.**

1. Baqa terisidan epiteliy to‘qimasi olish uchun shisha bankaga toza suv quyiladi va uning ichiga bitta baqani solib ustidan suv quyiladi (suv baqani ko‘mar-ko‘mmas miqdorda bo‘lsin). Baqa suvda bir-ikki kun turadi. Shu davrda uning terisidagi epiteliy to‘qimasi parchalari suvga tushadi va suvda oq parda hosil bo‘ladi.

2. Bankadagi epiteliy parchalaridan kichik bo‘lakchasini pipetka yoki pinset yordamida buyum oynasiga qo‘yiladi. Uni ikkita preparoval nina yordamida to‘g‘rilanadi. Ustiga rang berilgan fiziologik eritmadan tomizib, qoplagich oyna yopiladi.

3. Tayyorlangan preparat mikroskopda qaralganda epiteliy to‘qimasining hujayralari ko‘rinadi. Ular jadval yoki rasmdagi epiteliy to‘qimasi hujayralari bilan taqqoslanadi.

4. Preparat tayyorlashning imkoni bo'lmasa, tayyor mikropreparatdan foydalanish mumkin.

5. Mikroskopda ko'rilgan epiteliy to'qimasi hujayrasining rasmi daftarga chizib olinadi.




A

B


**Biriktiruvchi to'qima bo'yicha ishni bajarish tartibi.**

- Biriktiruvchi to'qimadan preparat tayyorlash uchun baqa terisidagi yumshoq biriktiruvchi to'qimadan pinset bilan chimdib olinadi va uni buyum oynasiga qo'yiladi.
- Buyum oynasiga qo'yilgan to'qima parchasi ustiga rangli fiziologik eritma tomiziladi va qoplagich oyna yopiladi.
- Preparat mikroskopda qaralganda undagi biriktiruvchi to'qimaning hujayralari ko'rinadi. Bu hujayralar siyrak joylashgan bo'ladi. Preparatda ko'rilgan biriktiruvchi to'qima jadval va rasmdagilarga taqqoslanadi.
- Mikroskopda ko'rilgan biriktiruvchi to'qimaning rasmi daftarga chizib olinadi. Yuqoridagi usul bilan preparat tayyorlash imkoni bo'lmasa, tayyor mikropreparatdan foydalanish mumkin.



C

D



E

F

**IV. Yangi mavzuni mustakamlash.** O'quvchilarni bajargan ishlarini taxlil qilish. Savol-javob qilish.

**V. O'quvchilarni baholash.** Mashg'ulotda faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantiriladi (baholanadi).

**VI. Uyga vazifa;** mustaqil preparat tayyorlash, mustaqil test tuzish 10 tadan. Rasm chizish, savollarga javob yozish.

*veb-saytimiz: Zokirjon.com*  
*Hujjat Word variantda beriladi.*

*Zokirjon Admin bilan*

*90-530-00-68 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz yoki nza4567 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.*

*Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi*

**Odam va uning salomatligi va biologiya fanidan 8-9-sinf o'quvchilarga 68 soatli to'garakni to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.**




**Narxi: 30 ming so'm**

**Telegram kanalimiz:**

**@Maktablar\_uchun\_hujjatlar**

**To'lov uchun: UZCARD \*880\*9860230104973329\*summa#**

**Plastik egasi Nabiyev Zokirjon**



**DIQQAT!!!**

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.  
To'liq holda olganingizdan so'ng:  
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.  
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.  
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.  
Kanal va gruppalarga tarqatmang.

**OMONATGA  
HIYONAT QILMANG.**